

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2023 Vol. 3

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON:**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN:**

**LANGUAGE AND CULTURE**

**2023 Vol. 3**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o'rinbosari:** Nodir Jo'raqo'ziyev  
**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafu Bafojev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

### Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nodir Jurakuziev

**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### **Editorial board**

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

### **Editorial Committee**

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Ushenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Abdulhay Sobirov**

O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar.....6

#### **Marhabo Umurzoqova**

Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini.....17

#### **Sadagat Abbasova**

Turli tillarda ma'nosiz ovoz almashish yo'nalishlari.....31

### Adabiyotshunoslik

#### **Sebahat Deniz**

Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının  
Gelişmesindeki Rolü.....43

#### **Ilyos Ismoilov**

Iskandarnomalarda yunon donishmandlari obrazi.....58

#### **Nodira Xolikova**

O'zbek jadid she'riyatida ayol obrazining ijtimoiy-estetik omillari  
(Cho'lpon va Hamza ijodi misolida).....77

### Fan. Ta'lim. Metodika

#### **Vahobjon Nazarov**

Fransuz tili darslarida multimedia vositalari: turlari va  
texnologiyalari.....94

### Sotsiologiya. Psixologiya

#### **Komil Kalanov**

O'zbek tilidagi duolarda muqaddaslik timsoli ifodasining  
sotsiologik talqini.....108

### Tarix. Manbashunoslik

#### **Shamsiddin Kamoliddin**

Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi.....132

# CONTENT

## Linguistics

### **Abdulhay Sobirov**

Reflections on the Present and Future of the Uzbek Language.....6

### **Marhabo Umurzakava**

The Concept of Linguistic Personality and its Linguistic Interpretation...17

### **Sadagat Abbasova**

Directions of Voice Substitutions Without Meaning in

Different Languages.....31

## Literature

### **Sebahat Deniz**

The Role of the Great Turkish Khan Babur and his Generation

in the Development of Turkish Literature.....43

### **Ilyos Ismoilov**

The image of Greek Sages in Iskandarnames.....58

### **Nodira Kholikova**

Socio-Aesthetic Factors of the Female image in Uzbek Jadid Poetry

(using the example of poems Chulpan and Hamza).....77

## Science. Education. Methodology

### **Vahobjon Nazarov**

Multimedia tools in French Language Classes: Types and

Technologies.....94

## Sociology. Psychology

### **Komil Kalanov**

Sociological Interpretation of the Expression of the Symbol

of Holiness in Blessings in the Uzbek language.....108

## History. Source studies

### **Shamsiddin Kamoliddin**

Legal Status of the Samanids Dynasty.....132

LINGVISTIKA  
LINGUSTICS

## O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar

Abdulhay Sobirov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada dunyo tillari tizimida o'zbek tilining tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. Turli sohalarga oid terminologik tizimlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, fizika, kimyo, tarix, filologiya fanlariga kirib kelayotgan terminlar, ularni o'zlashish qonuniyatlari, bu boradagi yutuq va kamchiliklar haqida gapirilgan, yangi o'zlashgan terminlarga izohlar berilgan. Shular asosida o'zbek tilining buguni va kelajagi qanday bo'lishi to'g'risida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** *taraqqiyot, globallashuv, ilm-fan, texnika rivoji, til, milliy til, jamiyat, termin, milliy terminologiya, kalkalash, so'z boyligi, sohaviy leksika.*

### Kirish

Dunyoda 7000 dan ortiq til bor. Har bir til muayyan xalqning va millatning ona tilisi sanaladi. So'z boyligi va ifoda imkoniyatlariga ko'ra jahondagi tillar bir-biridan aslo qolishmaydi. Ular ichida qadim va boy, uslubiy, badiiy jihatdan rang-barang bo'lgan o'zbek tilining alohida o'rni bor. O'zbek tili nufuz jihatidan dunyoda 34-o'rinda turadi va 50 milliondan ortiq so'zlashuvchisi mavjud. Ona tilimiz noyob tarixiy manbalariga, qadimiy qo'lyozmalariga ega. Boshqa tillarda bir yoki ikkita yozuvda yozilgan tarixiy yodgorliklar uchrasa, biz – o'zbek xalqi avesto, o'rxun-enasoy, oromiy, kushon, so'g'd, xorazm, eski o'zbek yozuvlarida bitilgan behisob qimmatli manbalarga egamiz, lekin bu faktlar bugungi shiddatli zamonda o'zbek tilining kelajak tillaridan biriga aylanishi uchun kafolat bo'la olmaydi. Dunyoning lisoniy manzarasida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar o'zbek tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti.

---

<sup>1</sup>*Sobirov Abdulhay Shukurovich* – Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

**E-pochta:** sobirov-1957@mail.ru.

**ORSID ID:** 0000 0003 0590 7093

**Iqtibos uchun:** Sobirov, A.Sh. 2023. "O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar" *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 6 – 16.

Tilimiz ustida jiddiy bosh qotirishimizga to'g'ri kelmoqda. Bu borada O'zbekiston hukumatining olib borayotgan til siyosati tahsinga loyiq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmonlari; 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi" olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi.

Keyingi 5-6 yil ichida o'zbek tilining mavqeyini mustahkamlash yo'lida ko'p ishlar amalga oshirildi, ammo til siyosatida muammolar yetarlicha. Eng katta muammolardan birini tilimizdagi o'zlashma so'zlar masalasi tashkil etadi. Bugun jahondagi axborotlar oqimining salkam 80 foizini qamrab olgan ingliz tili o'zbek tili bilan to'g'ridan to'g'ri aloqaga kirishmoqda. Buning natijasida siyosat, iqtisodiyot, moliya va kredit, diplomatiya, sport sohalariga oid yuzlab leksik birliklar o'zbek tiliga jadal kirib kelmoqda. Ayniqsa, fizika-matematika, kimyo-biologiya, inoformatika, meditsina kabi aniq fanlarga oid terminologik sistemalarda inqilobiy jarayonlar kechmoqda.

Masalan, sohalarga *aksiz, bankomat, birja, bloger, valyuta, veto, viza, demping, depozit, kompyuter, moratoriy, monitor, modernizatsiya, plastik karta, reyting, test, chat, charter* kabi son-sanoqsiz leksik birliklar va ular o'zbek tilining lug'at tarkibidan munosib o'rin oldi.

Bu jarayonga qarshiligimiz yo'q, chunki mazkur terminlarning aksariyati umuminsoniy qadriyatlarga ega va dunyoning barcha tillarida bir xil tushunchani ifodalaydi. Ularni to'g'ridan to'g'ri qabul qilish lisoniy qoidalarga mos tushadi. To'g'ri kelmaganlarini *ijara* (arenda), *bagaj* (yuk), *shartnoma* (kontrakt), *lombard* (garovxonona), *kafolat* (garantiya), *sarmoya* (kapital) *tizim* (sistema) ko'rinishida yoki yarim kalkalab qabul qilib oldik.

Hali o'zbek tiliga o'zlashib ulgurmagan "*Lola Burger*"; "*Yevro Burger*"; "*Burger Drujba*"; "*Chig'atoy House*"; "*Yevroremont*"; "*Stroyvektor*"; *Home BEKA, Vip market, Baraka market, Ali market, Tutzor market, minimarket, freshmarket, makromarket, lavash-market* kabi nomlar tarkibidagi *burger, yevro, house, home, vip market* singari so'zlarning noo'rin qo'llanishi bizni o'ylantiradi.

Shulardan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada chet tillardan o'zlashgan so'zlar, ularning sohalardagi ahamiyati, o'zbek tilining

kelajakdagi holatida ularning o'rnini qanday bo'lishi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

### O'zgarishlarning tilga ta'siri

Dunyo o'z taraqqiyoti yo'lida shitob bilan rivojlanib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, ilm-fan integratsiyasi, texnikaning mo'zizaviy rivoji jahonning bugungi manzarasini butunlay o'zgartirib yubordi. Insoniyat o'z taraqqiyotining yangi erasiga qadam qo'ydi. Ilm-fan va texnika yutuqlari natijasida inson o'zining ziddi sanalgan sun'iy intellektni yaratishning uddasidan chiqdi. Bir tomondan olib qaraganimizda, bu shiddat bilan davom etayotgan taraqqiyot mevasiga o'xshaydi, ammo uning ostida keng ko'lamdagi aql bovar qilmas ijtimoiy va sun'iy munosabatlar (lingvistik tafakkur va uning hosilasi) yotganini ko'rishimiz mumkin. Muayyan tilda ravon so'zlayotgan "robot"ni "gapirtirish", boshqalarning savollariga "javob qaytartirish", hatto, "ma'ruza yozdirish" uchun shu tilning ichki qurilishi, grammatikasi, uslublari va hokazolar haqida mukammal bilimga ega bo'lish, bu bilimni axborot kommunikation texnologiyalari tizimiga olib kirish bugun ilg'or millatlar uchun yangilik bo'lmay qoldi. Ular allaqachon buning uddasidan chiqqan oldi va sohaviy leksikani, ayniqsa, milliy terminologiyani "ipidan ignasigacha tadqiq etib", filologik bosqichdan keyingi bosqichga – ***gibrid tadqiqotlarga*** o'tib bo'ldi. Bunga ko'p misol keltirishimiz mumkin. Masalan, 2018-yilda rus olimlari A.N.Averkin, A.N.Pospelov, M.G.Gaaze-Raporortlarning "Толковый словарь по искусственному интеллекту" ("Sun'iy intellekt bo'yicha izohli lug'at")i chop etildi [<http://raai.org/library/tolk/aivoc.html>].

Lug'atga *validatsiya, varifikatsiya, kauzatsiya, lokutsiya, intellektual robot, domen* kabi terminlar kiritildi va mazkur terminlar rus tili lug'at tarkibidan munosib o'rin oldi.

Dunyoning boshqa yetakchi davlatlarida milliy tillar lug'at tarkibining boyishi uchun keng imkoniyatlar ochib qo'yilgan. Masalan, nemis tilida har besh yilda unga kirgan yangi so'zlar, neologizmlar lug'at shaklida nashr etiladi. Yaqinda nashr etilgan "DUDEN" ("Duden") lug'atidan 5000 ga yaqin so'z o'rin olgan. Uning ichida ***Inshaallah*** – *Alloh xohlasa*, ***Postfaktish*** – *siyosiy va ijtimoiy muhokamalarda hissiyotlarning faktlardan ko'proq ahamiyatga ega bo'lishi*, ***Alkonsänger*** – *balkonda kuylovchi*, ***Maskentrottel*** – *burnini berkitmagan holda himoya niqobi taqqan odam*, ***Hamsterkauf*** – *vahimada oziq-ovqat zahiralash*, ***Anderthalbmetergesellschaft*** – *1,5 metr masofaga amal qilishi lozim bo'lgan jamiyat yoki «bir yarim*

*metrlik jamiyat», **Coronamüde** – COVID-19dan toliqish, **Impfneid** – emlanganlarga hasad qilish, **Coronadiktatur** – COVID-19 diktaturasi, **Impfzwang** – majburiy emlash kabi leksemalar bor [https://kun.uz/news/2017/08/07].*

Bunday xayrli jarayondan, lug'at tarkibining yangi so'zlar hisobiga muntazam boyib borishidan o'zbek tili ham chetda emas. Keyingi yillarda tilimizga *barter, biznesmen, diler, injiniring, grant, kliring, lizing, bonus, venchur, grant, demping, depozit, opsion, smart-karta, kovorking, brend, brending, kopirayter, market, marketing, marketolog, press-reliz, promouter, konsalting, menejment, neyming, portfolio, sponsor, supervayzer, franchayzing, fors-major, holding, impichment, konsensus, ombudsmen, vinchester, virtual, drayver, kasting, tyutor, realiti-shou, tok-shou, barbekyu, gamburger, gril, yogurt, ketchup, pitsa, popkorn, fast fud, fishburger, fri, hotdog, chizburger, chickenburger* kabi turli sohalarga oid behisob so'zlar o'zlashdi. Ularning har biri o'z leksik ma'nosiga ega va muayyan sohalarda faol muomalada bo'lmoqda.

Masalan, **kriptovalyuta** – raqamli valyuta turi; **xaker** – odatda, tegishli dasturlarni, kodlarni yaxshi biladigan va buni g'arazli maqsadlarda qo'llaydigan kiberjinoatchi; **pentesting** – tarmoqlarning yoki dasturlarning xavfsizligini tekshirib ko'rish usuli. Shu ishni amalga oshiruvchi dasturchi **pentester** deb ataladi; **domen** – sayt nomi; **hosting** – bu sayt uchun ajratilgan joy bo'lib, saytdagi ma'lumotlar (matn, rasm, fayllar va hokazo)ni o'zida saqlaydi va h. k.

Global muammoga aylangan internet orqali minglab yangi atamalar o'zbek tiliga suqilib kirib kelmoqda. Masalan, *abyuz* – internet orqali biron kimsaning sha'niga dog' tushirish; *bodipozitiv* – tashqi ko'rinish asosida qabul qilish; *gazlayting* – ma'lumotni buzishga, insonni chalg'itishga qaratilgan, ruhiy zo'ravonlikning bir turi; *tulpa* – o'z-o'zini gipnoz qilish mahsuloti; xayoliy do'st; *xarasment* – psixologik zo'rovonlik va h.k. Bu kabi so'zlarning cheki-chegarasi yo'q.

Mazkur terminlar asosan ingliz va boshqa Yevropa tillaridan kirib kelgan leksemalar va ular bildirgan ma'nolar biz uchun ba'zan "toshyong'oq" bo'lib qolmoqda. Misol uchun *kiber* so'zini olib ko'raylik. Mazkur so'zning tilimizga o'zlashish jarayoni oxiriga yetmasdan turib, sohalar leksikasida u yordamida hosil qilingan *kibermashina, kiberhujum, kiberolam, kiberjinoatchi, kiberxavfsizlik, kiber-virus, kibersport* kabi yangi leksik birliklar paydo bo'ldi. Mazkur leksik birliklarning aksariyati asl holatida yoki

kalkalash yo'li bilan tilimizga o'zlashdi.

O'zbek tilining kelajagini o'ylaydigan bo'lsak, biz faqat so'z qabul qiluvchi, kalkalovchi til vakillari bo'lib qolmasdan, yangilik yaratib, o'sha yangilik bilan birga o'zbekcha so'zlarni boshqalarga uzatuvchi til vakillari maqomiga ham o'tishimiz kerak. Tafakkur qilmasak, oldinga intilmasak, ilm-fan, texnika bilan "tillashib" o'zbek tilining mashinaviy tilini yaratmasak, hozirgi tezkor globallashuv sharoitida zudlik bilan o'zbek tilining jahon miqyosidagi o'rni va nufuzini belgilab olmasak, shundoq boshqa xalqlarga taqlidchi bo'lib, ular erishgan yutuqlar samarasidan muayyan to'lovlar evaziga foydalanib, ularga qulluq qilib yuraveramiz. Turgan gapki tilimiz ham ikkinchi toifadagi tillar qatoriga tushib ketadi.

Vaqtida e'tibor qilmasak, bu sohada yutqazib qo'yishimiz mumkin. Bu haqida millatimiz peshvolaridan biri Alixonto'ra Sog'uniyning ibratli bir o'giti bor: *"Qaysi bir millatning ona tili o'z hojatini o'tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag'lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko'p uzoqlamayoq, insoniy huquqlaridan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg'izgina Vatanlaridan emas, balki butun borlig'i bilan tarix yuzidan yo'qolishga majbur bo'ladilar"* [Sog'uniy 1993, 10].

Bir narsani aslo unutmasligimiz kerak: taraqqiyot aslo kutib turmaydi. Tan olish kerak, lug'at boyligini saqlash, tadqiq etish, tartibga solish borasida ko'plab e'tiborga molik ishlar bajarildi va bu ish hozirda ham qizg'in davom etmoqda. O'zbek tilshunosligida Ayub G'ulom, A.Hojiyev, M.Mirtojiyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Ne'matov, S.Ashirboyev, H.Dadaboyev, I.Mirzayev, M.Umarxo'jayev, R.Rasulov, B.Yo'ldoshev, G'.Hoshimov, A.Madvaliyev, R.Sayfullayeva, S.Karimov, O.Bozorov, S.Normamatov, B.Mengliyev, L.Raupova, S.Muhammedova, M.Qurbonova, Sh.Iskandarova, S.Mo'minov, Sh.Shahobiddinova, J.Eltuzarov, M.Abdiyev, M.Hakimov, D.Nabiyeva, N.Uluqov, H.Usmonova, X.Jabborov, B.Bahriddinova kabi olimlarning samarali faoliyati natijasida *til, nutq, sath, til sathlari, adabiy til, adabiy me'yor, semantik maydon, leksik-semantik guruh, tasnif, shakl va mazmun birliklari, ular o'rtasidagi mutanosiblik (simmetriya) va nomutanosiblik (assimetriya), leksik ma'no, leksik me'yor, tagbilim, tagma'no, so'z valentligi* kabi ko'plab til qonuniyatlari ochib berildi; *derivasiya, denotat, signifikat, paradigmatika, sintagmatika, giponimiya, partonimiya, graduonimiya, morfema, morfonologiya, predikat, sema, semema, leksema, semantika, fonema, dialektologik kvalimetriya, diasistema* singari tushunchalarning

ta'riflari barqarorlashdi. Ularning fidoiylik bilan qilgan mehnatlari evaziga o'zbek tilining barcha sathlarida bo'lgani kabi leksik sathni, jumladan, o'zbek tilining terminologik qatlamlarini tadqiq etish o'zining yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

Quvonarlisi, tilimizning lug'at tarkibi va undagi asosiy birlik sanalgan leksemalarga barcha soha vakillarida e'tibor kuchaydi. Birgina misol, zamonaviy ilm-fan organizmlar tuzilishida hujayra, oqsil, molekula, aminokislota, gen va shu kabi elementlarning barqaror va muayyan tartib bilan joylashuvidan iborat kodlar tizimi mavjudligini isbotlamoqda. Bunday kodlashtirilgan birikmalar nanofanda triplet yoki kodon deb atalmoqda. Genetik kodlar tilga o'xshatilmoqda [Teshaboyev, Zaynobiddinov, Ismoilov, Ermatov, Abduazimov 2014, 11]. Bunday o'xshatishlar o'zbek tili leksikasining boyishiga, mukammallashuviga olib kelmoqda. Olimlarimizning samarali mehnatlari evaziga aniq fanlar terminologiyasida yangidan-yangi leksik birliklar paydo bo'lmoqda. Masalan, kimyo fanlari doktori, professor I.Asqarov tashabbusi bilan kimyo faniga *tovarlar kimyosi, tovarlar nomenklaturasi, bojxona ekspertizasi, tovarlarni sinflashtirish, tovarlarni sertifikatlash* kabi yangi leksik birliklar olib kirildi va hozirda ular iste'molda keng qo'llanilmoqda. Olim O'zbekiston tabiiy-ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi "Tabobat akademiyasi" raisi sifatida o'zi yaratgan tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalariga *AYRITOSH, ALQOMAN, ALQAYON, ASBOLA, ASBOSIM, ASDAVO, ASDARMON, ASNASL, ASTOSH, ASSHIFO, AKSQUVVAT, SHIFOYI MARHABOXON, MAJMUAYI RAHMONIY, ANTIKOVIR* degan nomlar berib, o'zbek tili leksik imkoniyatlarining cheksizligini yana bir bor isbot qildi [Asqarov 2021, 863-1053].

Bunday holatni fizika terminlarida ham ko'rishimiz mumkin. Akademik S. Zaynobiddinov boshchiligidagi fizik olimlarning *nanotexnologiya, nanomaterial, nanokristal, nanoakkuilyator, nanoo'lcham, nanorobot, nanoobyekt, nanosistema, nanofizika, nanokimyo, nanomeditina, nanobiologiya, nanoelektronika, neytrino fizikasi, astrozarralar* kabi terminlarning o'zbek tilida barqaror o'rin tutib qolishida xizmati katta bo'ldi [Teshaboyev, Zaynobiddinov, Ismoilov, Ermatov, Abduazimov 2014, 11].

Taraqqiyot tarix fanini ham chetlab o'tmayapti. Tarix fanlari doktori, professor R.Shamsuddinov *quloqlashtirish, uchlik, qatag'on siyosati, qatag'on qurbonlari, qatlgoh, aksilinqilobiy yacheyka, yot unsur, musulmonobod, tarixiy manbashunoslik, tarixshunoslik* kabi atamalarga yangicha ruh berish ishlariga boshchilik qilmoqda

[Shamsuddinov 2012, 432].

Filologiya fanlari doktori, professor M.Umarxo'jayev boshchiligida tuzilgan zamonaviy lug'atdan *intellektual platforma, sun'iy ong, virtual buyumlar, CASE-texnologiyalar, raqamli imzo, aqli dasturlash, raqamli kompyuter, nutq interfeysi, kompyuter grafikasi* kabi leksik birliklar joy oldi [Umarxo'jayev, Solijonov, Rustamov, Mahkamov, Azimjonov, Saidxonov, Jo'rayev, Abdumannonov 2022, 300].

Filologiya fanlari doktori, professor Sh.Sirojiddinovning sa'y-harakatlari bilan *navoiyshunoslik, tabdil, ko'shk, iyjoz (fikrni qisqa va lo'nda ifodalash), itnob (fikrni ko'p so'zlar vositasida ifodalash), musavva (so'z va ma'no tengligi), suluk (Haq yo'li), ilmi balog'a (til qoidalariga to'la amal qilgan holda so'zlash va yozish bilan bog'liq fan), ilmi fasohat (chiroyli, yoqimli so'zlash va yozishni o'rgatadigan fan), ilmi badi' (badiiy san'atlar haqidagi ilm), manoqib asar, matnshunoslik, manbashunoslik* singari leksik birliklarning qo'llanish chastotasi kuchaydi [Sirojiddinov, Yusupova, Davlatov 2019, 560].

Bularning hammasi o'z yo'lida, ammo yana bir masala bizni o'ylantiradi. "Women in Science" xalqaro mukofoti sovrindori, biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim Dilbar Dolimova bilan bo'lgan suhbatdan olingan parchaga e'tibor bering:

"Markazimizda zamonaviy priborlar, masalan, genetiklar ishlatadigan **sekvenator** bor. Shu apparat juda katta aniqlikda ishlaydigan kompyuterni talab etadi. Bu **superkompyuter** emas, kompyuter, lekin kuchlirog'i. Yoki yana bir misol, laboratoriyada **pipetmanlar** ishlatamiz. Ularning ham har xili bo'ladi. Laboratoriyada ishlaydigan xodimlarim biladi qaysisi biz ishlatishimizga yaxshiroq. **Ekzoskeletlar** Yaponiyada aholi keksayishiga texnologik kompaniyalarning javobi bo'ldi. Innophys firmasi **ryukzak ko'ri-nishidagi kostyumni** ishlab chiqqan bo'lib, u 24 kilogrammgacha yukni zo'riqishlarsiz ko'tarish imkonini beradi.

Matnda keltirilgan **sekvinator, pipetman, ekzoskelet** leksemalari o'zbek tiliga yangi kirib kelayotgan terminlar sanaladi. Ularga "Vikipediya"da shunday izohlar berilgan:

*DNK sekvensor (sekvenator)* – DNK zanjiridagi nukleotidlar ketma-ketligini avtomatik ravishda aniqlaydigan ilmiy asbob, qurilma, *pipetman* – yuqori aniqlikdagi pipetkalar, *ekzoskelet* – inson mushaklari kuchini oshirish, harakatni oyoq tayanch nuqtalariga o'tkazishga mo'ljallangan qurilma [https://kun.uz/42341857].

Ular ustida ishlash vaqti yetib keldi. Rostini aytsak, dunyoda

sof til bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Tillarning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishi tabiiy hol. Ayniqsa, bu jarayon leksik sathda faol kechadi. Hamma gap ona tilini butunlay boy berib, boshqa tilda gapirishga o'tib ketmaslikda. Bunday taqdir o'zbek tilining boshidan ko'p marotaba o'tgan. Faqat xalqimizdagi cheksiz sabr-toqat, yuksak tafakkur, ona tiliga bo'lgan ulkan mehr-muhabbat tufayligina o'zbek tili asrlar sinovidan sog'-omon o'tib bizlargacha yetib keldi. Bugun yana biz uning taqdiri ustida jiddiy bosh qotirishimizga to'g'ri kelmoqda. Agar yuzaki yondashadigan bo'lsak, bugungi davr o'zbek tilini yo'qolib borayotgan boshqa dunyo tillari kabi yo'qlik jari tomon surib ketishi mumkin. Shunga ko'ra hozirgi bosqichda har sohada bo'lgani kabi tilshunoslik sohasida ham tub burilishlar yasamog'imiz shart. Bu davr talabi, millat taqdiri, kelajak bilan bog'liq bosh masaladir. Bilamizki, buning uchun birinchi navbatda ichki va tashqi muhit, amaldagi jamiyat rahbariyati tomonidan beminnat ko'mak, tirgak, rag'bat kerak bo'ladi. Keyingi yillar ichida davlatimiz rahbari bu ishni a'lo darajada bajarib berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida tilga olingan Farmonlari til siyosatida tub burilishlar yasadi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan taraqqiy topishi, hayotimizga bozor iqtisodiyotining bosqichma-bosqich kirib kelishi, respublikamizda jahon infrastructuresidagi uzluksiz ta'lim tizimi, diplomatiya, moliya, bank va kredit, soliq, auditorlik, menejmentlik, monitoring, marketing, mashinasozlik, samolyot-sozlik kabi sohalarning paydo bo'lishi va taraqqiy topishi natijasida mustaqillik yillarida o'zbek tili lug'at sistemasining ichki va tashqi imkoniyatlarini to'la ishga solgan holda, til taraqqiyoti qonuniyatlari talabiga mos ravishda ona tilimizning erkin rivojlanishi uchun yangicha shart-sharoitlar yuzaga keldi [Xожиев 1994, 20].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ona tilimizni yanada taraqqiy ettirish uchun quyidagi vazifalarni zudlik bilan amalga oshirish zarur deb o'ylaymiz.

1. Tilimizning barcha sohalari bo'yicha amalda bo'lgan so'z va atamalarni, terminlarni yig'ish, ular ustida jiddiy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zarur. Bunda soha mutaxassislari bilan tilshunoslarning yakdilligini, birgalikda faoliyat olib borishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Chunki, biz terminlarning hozirgi holati, ularni o'rinli qo'llash, ayniqsa, o'zbek tilidagi muqobil variantlarini topish va iste'molga olib kirish bo'yicha yetarli tavsiyalarni ishlab chiqmas ekanmiz,

muayyan sohalarda, ayniqsa, aniq fanlarda terminlarni qo'llashda boshboshdoqliklar davom etaveradi, bir yoqlama xarakterdagi lug'atlar, ma'lumotnomalar, tezauruslar, qomuslar chop etilaveradi. Pirovard natijada ona tilining ta'siri zaiflashadi, o'z o'rnini chet tillariga bo'shatib beradi.

2. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini mamlakatimizda va xorijda yanada oshirish borasida keng ko'lamda amaliy ishlarni yo'lga qo'yishimiz, chet eldagi milliy madaniy markazlar, oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'zbekshunos, turkiyshunos olimlar bilan mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yishimiz zamon talablariga aylandi. Bu borada tashabbusni qo'limizga olishimiz lozim.

3. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda davom etishimiz, barcha sohalar bo'yicha zamonaviy lug'atlar, tezauruslar, rublikatorlar, klassifikatorlar, glossariylar, so'zlash-gichlar, konkordanslarni zudlik bilan yaratishimiz zarur.

4. Tarixiy manbalar va shevalarimizda saqlanib qolgan til boyligimizni – bebaho xazinamizni xalqimizga yetkazishda davom etishimiz zarur.

5. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'lim-gacha ona tili o'qitishni qayta ko'rib chiqish, milliy an'analar va xorijiy tajribalar asosida yo'lga qo'yish talab etiladi.

6. Eng muhimi, zamonga mos ravishda leksikografik ma'lumotlarni avtomatlashtirish, ularni to'plash va qayta ishlov berishda kompyuter texnologiyasidan unumli foydalanish, kompyuter lingvistikasini, korpus tilshunosligini yaratish, matn tahririni bajarish masalalariga alohida ahamiyat qaratish kerak.

7. Millatdoshlarimiz, vatandoshlarimiz qalbida ona tilimizga nisbatan milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini kuchaytirmasak, ulardan ayrimlari xorijiy tillarni o'zbek tilidan ustuvor deb bilishda davom etaveradi.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tili dunyodagi eng boy va teran tarixiy ildizlarga ega bo'lgan qadim tillardan biridir. O'zbek tili davlat va kundalik muomala-munosabat tili sifatida iste'molga doim yaroqli bo'lishi shart. Uning ichki va tashqi imkoniyatlari cheksiz va mislsizdir. Undan o'rinli foydalanish, ona tilining sofligi, tabiiyligi uchun kurashish, davlat tili me'yorlariga har soniyada to'liq rioya qilish, boshqalardan ham buni talab etish,

o'zbek tilining go'zalligi va tarovatini saqlab qolish barchamizning bizni oq yuvib, oq tarab o'stirgan, voyaga yetkazgan ona yurt, ONA TILI oldidagi sharaflil va ayni chog'da muqaddas burchimizdir.

### **Adabiyotlar**

- Алихонтўра Соғуний. 1993. *Туркистон қайғуси*. Тошкент: Шарқ.
